



ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№4(21) 2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале *«Педагогическая акмеология»* являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal *"Pedagogical akmeology"* are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: "Sadriiddin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O'zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Axadov Ma'murjon Sharipovich, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Vohidov Shodmon Husenovich, tarix fanlari doktori, professor, Marmara universiteti (Turkiya)

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori (DSc)

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

TARIX..... 8

Boltayev Bobir Baxtiyorovich. Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati va turizm.....	8
Qudratov Shuxrat Yodgorovich. Buxoro amirligida tadbirkorlikning ipak va to'qimachilik sohalari faoliyatiga doir ayrim ma'lumotlar.....	13
Barakayeva Sarvinoz To'lgunovna. Astronomiyadan ma'lumotlar bazalari va ularni qo'llash usullari	16
Tuyev Fazliddin Erkinovich. Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida investitsion jozibadorlik: 2017-2023-yillar misolida	21
Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li. Usmon Xo'janing Afg'onistondagi muhojirlik qismati	26
Эргашев Жахонгир Юнус ўғли. Турк хоконлигида харбий маъмуриятнинг шаклланиши	30
Курбанов Хуршид Раунович. Ўзбекистондан юборилган "Меҳнат армиячилари" сафарбарлигининг тугатилиши	35
Norkulova Gulida Sodikovna. Miyonkol vohasida motam marosimlarining arxaik diniy e'tiqodlarning xilma-xilligi	39
Асламкулова Парвина. "Нантский эдикт" как источник в изучении истории религиозных войн во Франции.....	42
Naimov Ismat Nusratilloevich. Suv tejashning Buxoro tajribasi: amaliyot va natija	46
Haitov Jahongir Shodmonovich, Kenjayev Oqilbek Ato o'g'li. BXSР va xorijiy davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tarixidan	50
Хуррамов Абдор Рустам ўғли. Варахша археологик ёдгорлигини музейлаштиришнинг тарихий асослари.....	54

ANIQ VA TABIIY FANLAR 58

Qurbonov G'ulomjon G'afurovich, Shodmonova Nozima Ro'zimurod qizi. Fibonachchi sonlari va ularning sodda xossalari mavjudligi	58
Rashidov Anvarjon Sharipovich, Safarova Nigora Nasulloyevna. Grafik organayzer metodlaridan foydalanib analitik geometriya va chiziqli algebra bobini takrorlash.....	64
Jo'rayev Shuhrat Isroilovich, Ilyosov Madiyor Izzat o'g'li. Olimpiada masalalarini tenglamalar yordamida yechishga o'rgatish.....	68
Yakubova Madina Faxriddin qizi. Kimyo fanini o'qitishda gumanitar fanlar bilan integratsiyadan foydalanishning ahamiyati.....	72
Narzullayev Muxiddin Nasullayevich. Quyosh faolligining hozirgi 25-siklining o'ziga xoslik jihatlari	77
Razzokova Moxinur Baxodir qizi. Fizika ta'limini takomillashtirish: an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi.....	84

IQTISODIYOT 88

Тожикужаев Абдурахмонхужа. Диверсификация банковской деятельности как стратегический механизм обеспечения устойчивости и управления рисками в коммерческом секторе	88
---	----

FILOLOGIYA 93

Жумаева Д.Т. Обогащение словарного запаса учащихся	93
---	----

PEDAGOGIKA 96

Sayfullayeva Gulhoyo Ixtiyor qizi. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalar kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va ta'lim dasturlari asosida o'qitishning hozirgi holati.....	96
Ahadov Ma'murjon Sharipovich, Mardonova Zuxra Shuxratovna. O'quvchilarda kimyo faniga oid kompetensiyalarini shakllantirishda pisa tadqiqotlaridan foydalanish	99
Beginqulov Zarif Axmadovich. Ta'lim muassasalarida jadidchilikni o'qitilishining zarurati	107
Umurov Zarif Latifboyevich. Kasbiy kompetentlik va kasbiy sifat konsepsiyasi.....	111

Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li
Buxoro davlat universiteti
dotsenti, tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

USMON XO'JANING AFG'ONISTONDAGI MUHOJIRLIK QISMATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro jadidlarining yirik vakili Usmon Xo'ja Po'latxo'jayevning Afg'onistondagi muhojirlik qismati masalasi ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Usmon Xo'ja, Afg'oniston, muxojirlik, Buxoro, Turkiya, qo'rboshi, jadid, Abdurahim Yusufzoda, Kobul.

МИГРАЦИЯ УСМАНА ХОДЖИ В АФГАНИСТАНЕ

Аннотация. В статье научно анализируется судьба эмиграции в Афганистан видного представителя бухарских джадидов Усмана Ходжи Пулатходжиева.

Ключевые слова: Осман Ходжа, Афганистан, эмиграция, Бухара, Турция, полководец, джадид, Абдурахим Юсуфзода, Кабул.

USMAN KHOJA'S MIGRATION IN AFGHANISTAN

Annotation. This article scientifically analyzes the fate of the emigration of Usman Khoja Pulatkhojiev, a prominent representative of the Bukhara Jadids, to Afghanistan.

Keywords: Osman Khoja, Afghanistan, emigration, Bukhara, Turkey, commander, Jadid, Abdurahim Yusufzoda, Kabul.

Bugun jamiyatimizda kechayotgan islohotlarning zamirida ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilayotganligi, ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un ekanligini ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev aytganlaridek: "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadryatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"[1] – deb aytgan fikrlari yana tarixga yuzlanib jadidlar ilmiy merosi va ularning tarixda bosib o'tgan yo'llarini qayta –qayta tadqiq etishga sabab bo'lmoqda.

Buxoro jadidlarining yetuk namoyondalaridan biri Usmon Xo'ja Po'latxo'jayevning hayot yo'li birdek silliq ketgan emas. Uning faoliyati tarixida Afg'oniston bilan ham bog'liq jabhalar kechganligi tarixiy adabiyotlarda uchraydi. Xususan, tarixchi olimlar tarix fanlari doktori, professor Q.Rajabov va Sh.Hayitovlarning arxiv hujjatlari asosida bergan fikrlariga qaraganda: Usmon Xo'ja BXSРning favqulodda vakili sifatida Sharqiy Buxoroda xizmat safarida yurgan davrida, ya'ni 1921-yil 9-dekabrda o'z yordamchilari: harbiy ishlar noziri muovini Ali Rizobek, Termiz garnizoni qo'mondoni Hasanbek va Doniyolbek yordamida Dushanbe garnizonidagi qizil askarlarni qurolsizlantirishgan. Bu paytda Dushanbe yaqinidagi Ibrohimbek qo'rboshi qarorgohida turgan turkiyalik harbiy sarkarda Anvar Posho o'z yordamchilari Hoji Somiy (u keyinchalik Salim Posho nomi bilan mashhur bo'lgan) va Usmon Afandini bir guruh askarlari bilan Usmon Xo'jaga ko'mak berish uchun yuboradi. Biroq, Ibrohimbek bilan til topisha olmagan Usmon Xo'ja Bobotog' tomonga chekinib, 1922-yilning yanvar oyi boshlarida o'z ixtiyoridagi milliy harbiy qismlar bilan birgalikda Behbudiy (hozirgi Qarshi)ga keladi. Bu yerda turganida u uzil-kesil bir qarorga kelib, sho'rolar bilan aloqani uzgan. U keyinchalik Kobulga kelgan degan fikrlarni qayd etadilar[2].

Ta'kidlash joizki, Usmon Xo'janing Afg'onistonga o'tish niyati bo'lib, u inglizlardan harbiy yordam olish evaziga Buxoro milliy armiyasini tuzish va mustaqillikni tiklash kabi maqsadi bo'lgan. Usmon Xo'ja Afg'onistonda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erish uchun tinmay harakatda bo'lgan, biroq, BXSР Nozirlar Sho'rosi raisi Fayzulla Xo'jayevning "Vaziyat yomon, qaytib o'tirmang!" – degan yashirin xabari yetkazilganidan so'ng uning bu maqsadlari amalga oshmagan.

Temirxo'ja otasining Afg'onistonga o'tib ketgani haqida shunday deydi: "Otam 1922-yili Afg'onistonga inglizlardan Buxoro jumhuriyati milliy qo'shinlari uchun qurol sotib olish niyatida boradi.

Ammo, uning niyati amalga oshmaydi. Murodi hosil bo'lmagan bir damda otam amakim Fayzullox'o'jadan "Buxoroda ahvol yomon, kelmang, xoinlikda ayblanasiz" mazmunida xat oladi... Ko'rib turibsizki, otamning shu kundan boshlab so'nggi hayoti vatan deb vatansiz kechdi..."[3].

Buxoro Kompartiyasi Markazqo'mitaning 1922-yil 6-iyuldagi Plenum materiallari stenogrammasida keltirilishicha Usmonxo'janing tengdoshi, 1890-yilda Andijonda tug'ilgan, Buxorodagi Tursunjon madrasasida o'qib, shu joyda mudarrislik qilgan, jadidchilik, yosh buxoroliklar harakati peshqadamlaridan, 1919-yilda Buxoro Kompartiyasiga kirgan, Buxoro inqilobi jonkuyarlaridan, Chorjo'y Revkomi a'zosi, 1921-1922-yillarda BXSРning Afg'onistondagi elchisi Abdurahim Yusufzoda Kobuldagi Buxoro elchixonasida turganida Usmonxo'ja afandining Afg'onistonga o'tib, u bilan Ali Rizo (BXSРni harbiy noziri o'rinbosari) bilan birgaligi, ammo, Ali Rizo Mozori Sharifda qolgani, Usmonxo'ja esa Kobulga kelib, shahar bog'laridan birida joylashgani haqidagi xabarni elchixona vakillaridan biladi[4]. Yuqoridagi fikrlardan ko'rish mumkinki, Usmon Xo'janing Afg'onistondagi faoliyati BXSРning Afg'onistondagi elchixonasi xodimlariga ham ayon bo'lib, ular ham Usmon Xo'janing bu yerdagi faoliyatiga qiziqqanligi ayon bo'ladi.

Shu vaqtlarda Turkiyaning sobiq harbiy ministri Anvar Posho ham Afg'oniston bilan Sharqiy Buxoro chegaralarida o'z qo'shini bilan turardi. U Ali Rizo bilan uchrashadi. "Men – deb aytadi A.Yusufzoda, - Usmonxo'janing qabuliga kelguniga qadar G'oz'i hoji ismli bir kishi bilan uchrashgani va suhbatlashgani haqida xabar oldim, bu xabarning hammasini yozib ham oldim, uni keltirgan kishi hozirda men bilan Buxoroga kelgan, Usmonxo'ja avval turklarga qo'shilgan, endilikda esa o'zi tanho qolgan. Ali Rizo bilan Doniyor va Usmonxo'ja bir-birlari bilan unchalik yaxshi emas, loaqal biror so'zlarini ham qo'llab-quvvatlamaydilar, ular Usmonxo'jani qo'rqitishga urinmoqdalar. Men Buxoroga telegramma yo'llab, Usmonxo'ja faqat bir masaladagina aybdor: men Anvar Posho vasvasasiga va shu ishga berilib podsho vasvasasiga uchib ketgani va shu ishga berilib qolganini xabar qildim"[4].

Usmonxo'janing Afg'onistondagi faoliyati ham silliq kechmay u yerdagi RSFSРning Afg'onistondagi vakillari "e'tiborini o'ziga tortadi". Shu vaqtda Kobulda RSFSРning Afg'onistondagi elchisi – Fedor Fedorovich Raskolnikov edi. RSFSР Buxoro Xalq Jumhuriyatiga qat'iy tazyiq ko'rsatgani singari Rossiyaning Kobuldagi elchisi ham Buxoro elchisini tazyiq ostiga olganga o'xshaydi. Bu A.Yusufzoda ma'ruzasidan ham qisman ko'rinib turibdi. "Men Rossiya elchixonasidan kelgan vakilga bu haqda xabar berganimda u mendan Usmonxo'jaga odam yuborib, uning maqsadini bilishimni talab etdi. Shundan so'ng elchixona bosh kotibi Mirza Muhammad Sharifxo'jani Usmonxo'ja huzuriga yubordim", - deb aytgandi. O'zaro uchrashuvdagi suhbatda "Siz nima sababdan qochib o'tdingiz?"- degan savolga Usmonxo'ja shunday javob qilgan ekan "Men o'rislar oddiy fuqarolarni qanday talayotganini, azoblayotganini ko'rdim. Ular bosmachilar bilan kurashish niqobida aholini taladilar, shunga o'xshash ishlar ko'p bo'ldi[4].

Yana A.Yusufzoda ma'ruzasidan parcha keltiramiz: "Muhitdin Maxdum qochib o'tganidan so'ng G'ozix'o'ja ismli odam bilan uchrashdim va gaplashdim". G'ozix'o'ja Usmonxo'jadan: "Menga miltiq bering, men o'zim Muhitdin Maxdumni ushlayman" deb, miltiqni olib u ham qochib ketadi. Usmonxo'jaga bir tomondan o'rislar, ikkinchi tomondan laqaylar hujum qilishdi. Shu paytgacha Usmonxo'ja Sharqiy Buxorodan Buxoroga qaytish maqsadida Qarshiga keladi va bir hovlida tunaydi. Shu vaqtda Doniyor ham bosmachilar tomonga o'tib ketadi. Usmonxo'ja Buxoroga qaytish uchun hozirlanib turganida u "Fayzullox'o'ja va Otaxo'jani hibsga olishdi va Moskvaga jo'natishmoqchi" mazmunida xabar oladi. Bu xabarni yo dushman, yo do'st, kim keltirgani ma'lum emas. Bundan voqif bo'lgan Usmonxo'ja qo'rqib ketib, Afg'onistonga o'tib ketgan. Bu yerda ham unga tinchlik berishmaydi, hali u, hali bu qog'ozni imzolashni talab qiladilar. Bu haqda hikoya qilib Usmonxo'ja shunday deydi: "Men adashdim, hozir shunday holatda qoldimki, mening qismatim, taqdirim shundayligini ko'rib turibman.

A.Yusufzoda fikrlaridan yana birida shunday davom etadi: "Usmonxo'janing Muhitdin Maxdum haqidagi so'zlarini aralashtirib yubormoqchi emasman. Hozirgi vaqtda afg'onlar bilan inglizlar o'rtasida qandaydir do'stlik davom etmoqda. Ularning Turkiston to'g'risida va'da va niyatlari bor. Men yaxshi bilamanki, ular do'stligi ancha mustahkamdir. Inglizlardan Afg'onistonga qanchadan-qancha to'plar, miltiqlar, o'q-dorilar va boshqa narsalar keltirilmoqda. Na afg'on davlatini, na ingliz davlatini biladigan tog'lar orasida bir qabila bor. Ko'plab qurollar, to'plar va miltiqlar olib o'tilayotganida ularning hammasi bu qabila tomonidan tortib olindi. Men shunga taajublanamanki, Buxoroning o'zidan ayrim kishilar Afg'oniston hukumatiga xat yo'llab: Turkistonni o'rislar va shunga o'xshaganlardan tortib olinglar, deb aytmoqdalar. Shu xatlardan mening qo'limga ham tushib qoldi. Abdulhodining aytishicha, Abduqodirning ham maktubi bor ekan. Amir va tashqi ishlar vaziri bu kishini yaxshi biladilar. Hozirgi vaqtda papkamda Abduqodirning xati turibdi. Afg'oniston hukumatida ishlayotganlar ichida, Buxoro hukumati xodimlari orasida ham bosmachilar tarafdorlari va ular bilan birga ishlayotganlar borligi haqida gaplar yuribdi.

- 28 Rossiya elchixonasida menga ham Buxoro davlati xodimlari ichida bosmachilarga yordam ko'rsatayotgan kishilar bor, deb aytishdi. Ular bilan Buxorodagi afg'on elchisi ham aloqada ekanligi ma'lum bo'ldi. Men bu haqda sizga yozganman. O'ris elchisi Raskolnikov menga Buxorodan bosmachilarga pul mablag'lari berilayotganini aytdi. Afg'on aholisi o'rtasida F.Xo'jayev kofir, Buxoro davlatida esa haqiqiy musulmonlar ham borki, ular bosmachilarga yordamlashmoqda, pullar bermoqda, - degan gaplar yuribdi..."

A.Yusufzoda ma'ruzasi Buxoro Kompartiyasi Markazqo'mi Siyosiy byurosida ham ko'riladi, tegishli xulosa qilinadi, qaror qabul etiladi. Afg'onistonga o'tib ketganlardan G'ozi hoji, Qori Abdulla, Nurqul botir, Doniyorbek. F.Xo'jayev, M.Aminov nomiga yozgan xatlarida Usmonxo'jani yuksak baholagandilar: "Buxoro mustaqilligi faqat so'zda eshitiladi, aslini olganda esa u amalda hech ko'rinmaydi. Shuning uchun ham buxorolik kekxa inqilobchilardan biri – qahramon Usmonxo'ja Buxoro jumhuriyati raisi bo'lishiga qaramasdan o'ris konsuliga va Sizga qarshi urush e'lon qildi. U barcha zulmga bardosh beraolmasdan u tomonga (Afg'onistonga)o'tishni afzal ko'rди", deyilgan edi xatda[4].

Usmon Xo'ja 1922-yil 10-aprelda Afg'oniston poytaxti Kobulga keldi. U bu yerdagi ingliz rasmiylari bilan Buxoro qo'shinlari uchun qurol-yarog' sotib olish to'g'risida muzokara olib borishga harakat qildi. Biroq, ingliz rasmiylari Usmon Xo'jaga hech qanday kafolat bermadilar, chunki, Angliya va Rossiya o'rtasida bir-birining manfaatlari sohalariga aralashmaslik to'g'risida kelishilgan edi. Usmon Xo'ja 1922-yil 29-aprelda Afg'oniston shohi Omonullaxonga memorandum taqdim etdi. Ushbu memorandumda Usmon Xo'ja konstitutsiyasida mustaqil mamlakat sifatida tasdiqlangan Buxoro Jumhuriyatiga qarshi Sovet hukumatini hujumkor harakat qilganlikda aybladi: "Bugungi kunda Buxoro markaziy hukumatining yetakchilari Sovet bosqinchi armiyasining bosimi ostida. Hatto, ularning hayotiga tahdid etilmoqda. Ulardan Sovet talablarini qullar singari qabul qilishlari talab qilinmoqda. Yuqorida aytib o'tilgan voqealardan ko'rinib turibdiki, Buxoro hukumati erkin va mustaqil emas. Hatto, iqtisodiy mustaqillikka ega emas"[5].

1921-1922-yillarda Usmon Xo'janing BXSР hukumati a'zosi va BMIQ raisi sifatida Volgabo'yi va Ural oldida ocharchilikka duchor bo'lgan aholiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, amir tuzumi ag'darilgandan keyin Afg'onistonga o'tib ketgan ko'p ming sonli muhojir (turkman)larni o'z yurtiga qaytarishdagi xizmati kabi masalalarni ham tadqiqotchi olim A.Mahmudov qayd etadi[6].

Anvar Posho 1922-yil 5-avgustda Dushanba yaqinidagi Baljivonda vafot etganligi haqidagi xabar Kobuldagi Usmon Xo'jaga yetib keldi. Rossiya hukumati hatto Afg'onistonda ham Usmon Xo'ja faoliyatini diqqat bilan kuzatib borar edi. RSFSRning Kobuldagi elchisi Fyodor Fyodorovich Raskolnikov Usmon Xo'jaga ergashgan bir nechta josuslarga ega edi. Rossiya elchixonasiga Usmon Xo'ja haqida ma'lumot bergan josuslardan biri bu Buxoro elchisi Abdurahim Yusufzoda edi degan ma'lumotlar ham berilgan.

Moskvadagi kundalik "Pravda" gazetasi sahifalarida, doimiy ravishda Usmon Xo'jadan shikoyatlar va uning Afg'onistondagi faoliyatlari haqida 1922- yildagi sonlarida ma'lumotlar chiqib turgan. Pravda gazetasining bu xabarlari dastlab fransuz jurnalisti Joseph Castagnéning diqqatini jalb qilgan. Moskva Usmon Xo'jani inglizlar va bosmachi guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolishda shunday ayblamoqda edi: "Usmon va Qori Afandi inglizlar bilan aloqalarni o'rnatish uchun Afg'onistonda"[7]. Nihoyat, Moskva Afg'oniston hukumatiga Usmon Xo'jani ularga topshirishi yoki uni mamlakatdan chiqarib yuborishi uchun bosim o'tkazganida, Usmon Xo'ja Kobuldan chiqib, 1923-yil o'rtalarida Eron orqali Istanbulga yetib boradi.

Xulosa qilib aytganda Usmon Xo'janing hayot yo'lida muxojirlik qismati bitilgan ekan. Uning qo'shni Afg'onistonda muxojirliги Sovet hukumati vakillaridan zo'ravonlik siyosatini chetlab o'tish bilan amalga oshgan bo'lsa bu siyosiy bosimlar natijasida Usmon Xo'ja Afg'onistondan chiqib Turkiya davlatida boradi va umrining oxirgi kunlariga qadar shu yurtda yashab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang>
2. Rajabov Q., Hayitov Sh. Usmon Xo'ja (risola). –T.: "Abu matbuot-konsalt", 2011. –B.17.
3. Timur Kocaoglu (Temur Xo'ja) Usmon Xo'ja: 1921 Dushanba muhosarasi va boshqa siyosiy faoliyatlari // Buxoro jumhuriyati 101 yoshda nomli Xalqaro Simpozium maqolalari. –Istanbul: "Kutlu Yaynevi", Toshkent: "Mumtoz", 2021. –Sax.242-278.
4. Шамсутдинов Р. Усмон хўжа – ватан хоини эмасди / Халқ сўзи, 15 октябрь 1991 йил.

5. Timur Kocaoğlu (Temur Xo'ja) Usmon Xo'ja: 1921 Dushanba muhosarasi va boshqa siyosiy faoliyatlari // Buxoro jumhuriyati 101 yoshda nomli Xalqaro Simpozium maqolalari. –Istanbul: “Kutlu Yayınevi”, Toshkent: “Mumtoz”, 2021. –Sax.242-278.
6. Маҳмудов А.М. Усмон Хўжа Пўлатхўжаевнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Фарғона., 2022. -В.17.
7. Усман-Ходжа и Кари Эфенди остаются в Афганистане для связи с англичанами.” Правда, Нр. 122 (5.6.1923), s. 3.
8. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 82-85.
9. Asror o'g'li A. A. History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 339-342.
- 10.Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
- 11.Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 842-845.
- 12.Ahmadov A. BUXORO AMIRLIGIDAGI AFG'ONLAR: HAYOTI VA FAOLIYATI XUSUSIDA //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 1304-1308.